



TIIAME

G'OFUR G'ULOMNING HAYOTI VA
IJODIY FAOLIYATI. "MENING
O'GRIGINA BOLAM "HIKOYASI.



Fan- O'zbek tili

O'qituvchi- Mamarajabova Iroda Fayzullayevna



TIIAME


REJA:

- ▶ 1. G'ofur G'ulomning hayoti va ijodi.
- ▶ 2. "Mening o'g'rígina bolam "hikoyasi.
- ▶ 3. Xulosa





O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri G‘afur G‘ulom 1903-yil 10-mayda Toshkent shahrining Qo‘rg‘ontepa mahallasida mehnatkash oilasida tug‘ildi.



TIIAME

Shoir liroepik janrlarda
«Ko'kan» poemasini,
«To'y», «Ikki vasiqa»
balladalarini yaratdi. 30-
yillar G'afur G'ulom
hikoya, ocherk,
felyetonlar qatori
«Netay», «Yodgor»,
«Tirilgan murda» kabi
qissalarini o'z
kitobxoniga taqdim etdi.





TIIAME



G‘afur G‘ulomning 20 ga
yaqin she’riy to‘plamlari
chop etilgan. U O‘zbekiston
fanlar akademiyasining
haqiqiy a’zosi edi. 60 yillik
yubileyi munosabati bilan
unga O‘zbekiston xalq
shoiri faxriy unvoni berildi.
Shoirning ko‘pgina asarlari
qardosh xalqlar, Osiyo va
Yevropa tillariga tarjima
qilingan.



G‘AFUR G‘ULOM ASARLARI



TIIAME

She’rlari:

“Qish va qor” (1929)

“Non” (1931)


“Toshkent” (1933)

“Qutbda saylovlari” (1937)

“Men - Yahudiyman” (1941)

“Qish” (1941)





TIIAME

She'rlari:

“Xotin” (1942)

“Afsuski, afsusni qo‘shib ko‘mmadi”
(1945)

“Bog” (1934)

“Qayg‘u” (1942)

“Kuz keldi” (1945)

“Kuzgi ko‘chatlar” (1948)




QISSALARİ:

“Netay” (1930)

“Yodgor” (1936)


“Shum bola” (1936-1962)



«Mening o'g'rigma bolam» hikoyasi haqida

- Bu voqeiy hikoya 1965 yilda yozilgan. Unda 1917 yillar voqealari aks etgan, o'g'rini insofga keltirgan Roqiya bibi obrazı berilgan. Hikoya «Otamizning o'lganiga anchagini yil o'tib ketdi. Bu yil o'n yettinchi yilning ko'klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo'lib qoldik...» degan gaplar bilan boshlanadi. Asarda Roqiyabibi o'g'riga qarata: «Tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko'ziday non anqonga shapig' (tirikchilik og'ir bo'lib qolgan). Ro'zg'orda bo'lsa, ko'z ko'rib, qo'l tutguday arzigulik buyum qolgani yo'q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. «Turib yeganga turumtog' chidamas», deganlar. Zamon qattiq, o'g'rigma bolam, zamon qattiq!» deganda, unga javoban o'g'ri: «Mening ham ikki bolam, xotinim, bitfa kampir onam bor, bir tovuqqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlарidek, shularni boqishim kerak, to'rtta chavati non topish uchun o'zimni o'tga, cho'qqa, Alining tig'iga uraman. Zamon chappasiga ketdi. Kerinska poshsho bo'lgandan keyin urush to'xtaydi degan edilar. Hali-beri to'xtaydigan ko'rinnmaydi» - deydi.
- Hikoya ikki nochor odamning bir-biriga arz-holigina bo'lib qolgan emas, balki muloqot asnosida ayon bo'ladiki, ular o'z taqdirlarida xalqning ahvol-ruhiyatini jamuljam etganlar. Bu hol hikoyaning ma'no salmog'ini, jozibasini oshirgan.





TIIAME

«Mening o‘g‘rigina bolam» nomi ostida jamlangan qissalar va hikoyalar o‘zbekona hayot tarzi, insonlardagi mehr-oqibat kabilarning qimmatli ne'mat ekanligini anglaydi. Taqdir boshlagan ko‘chalarining so‘qmoqlaridan bir-bir o‘tib, unda o‘z yaqinlarini ko‘rgandek bo‘ladi. O‘zbek xalqining necha asrlardan beri meros bo‘lib kelayotgan urf-odatlari ichidan eng qadrlisi – mehmondo‘sit xalqni ko‘radi.

30-yillarda G‘afur G‘ulom hikoya, ocherk, felyetonlar qatori «Netay», «Yodgor», «Tirilgan murda» kabi qissalarini ham yaratdi. Urush yillarida shoir o‘z ijodining butun haroratini fashist bosqinchilariga qarshi kurashayotgan xalqqa bag‘ishladi, uning muqarrar g‘alabasiga ishonch ruhi bilan sug‘orilgan she’rlar yaratdi. U «Sen yetim emassan», «Kuzatish», «Vaqt», «Sog‘inish» kabi she’rlar, publitsistik ocherk va maqolalar yozib, xalqni jang va mehnat g‘alabasiga otlantirdi.



G‘afur G‘ulom o‘zbek tarjima maktabining maydonga kelishiga ham ulkan hissa qo‘shtigan. U «Otello», «Qirol Lir» singari jahon adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga katta mahorat bilan o‘girgan. G‘afur G‘ulom O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi (1943) edi.





U 60 yillik yubileyi munosabati bilan «O‘zbekiston xalq shoiri» faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan (1963). 2000 yilda esa Vatan oldidagi unutilmas xizmatlari uchun unga «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi.



TIIAME



O‘zbek she’riyatining otashin jarchisi, ulkan so‘z san’atkorি
G‘afur G‘ulom milliy adabiyotimizning rivojiga katta hissa
qo‘shgan adibdir. Adib 1966 yilda vafot etgan.




TIIAME





Uyga vazifa.

"Mening o'g'rigina bolam "hikoyasi mazmuniga
o'z munosabatingizni bildiring.



TIIAME



TILAME

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!